

**ABDULLA QODIRIY – O‘ZBEK REALIST ADABIYOTINING
YORQIN NAMOYONDASI**

Ruxshona Xasanboyeva Nurmatjon qizi,

Namangan davlat universiteti, Tarix yo‘nalishi talabasi

E-mail: rhasanboyeva1124@gmail.com

Ilmiy rahbar: Madraximov Zoxid Sharofovich,

Namangan davlat universiteti dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan, yangi uslub va g‘oyalarni olib kirgan adib Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodiy merosi keng qamrab olingan. Asarda yozuvchining jadidchilik harakatidagi o‘rni, roman janrini o‘zbek adabiyotiga olib kirishdagi xizmatlari, “O‘tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarining badiiy xususiyatlari, tarixiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, Qodiriy asarlarida realizm, milliy uyg‘onish va mustamlaka davri tanqidi qanday aks etgani tahliliy yondashuvda ochib beriladi. Maqolada adib merosining bugungi kunda ham dolzarbligi, yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qodiriy, jadidchilik, realizm, roman, “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, milliy uyg‘onish, “Mushtum”, “Sadoi Turkiston”, “To‘y”, “Fikr aylag‘il”, “Millatimga”, adabiy meros.*

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston vohasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy yangilanish harakati – jadidchilik, o‘zbek xalqining milliy uyg‘onish davridagi eng muhim va hal qiluvchi bosqichlaridan biri bo‘lib tarixda muhrlanadi. Bu harakat nafaqat maktab-maorif sohasini isloh qilishga, balki adabiyot, san’at, matbuot, tafakkur va milliy ongni o‘zgartirishga qaratilgan keng ko‘lamli g‘oyaviy oqim bo‘ldi. Jadidlar Turkiston jamiyatini jaholat, urf-odatlar va eskicha qarashlar changalidan qutqarib, zamonaviy bilimlar, ilg‘or texnologiyalar, ijtimoiy adolat va xalq manfaatlarini ilgari surishga intildilar.



Jadidchilik harakatining yetakchilari orasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvar zotlar bo'lsa, adabiyot maydonida esa bu g'oyalarning yorqin targ'ibotchisi sifatida Abdulla Qodiriy namoyon bo'ldi. Abdulla Qodiriy o'zining roman, hikoya, publitsistik va dramatik asarlari orqali jadidchilik mafkurasining eng chuqur, eng ta'sirchan badiiy ifodasini yaratdi. Ayniqsa, o'zbek adabiyotida roman janriga asos solgan "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" asarlari milliy o'zlik, tarixiy xotira va ijtimoiy o'zgarishlar timsoliga aylandi. Jadidlar adabiyotni insonni tarbiyalovchi, jamiyatni uyg'otuvchi qudratli vosita deb bilganlar. Abdulla Qodiriy esa bu nazariyani badiiy jihatdan amalda isbotlab, adabiyot orqali xalqni o'z tarixiga, o'zligiga qaytarishga harakat qilgan. Qodiriy asarlarida Turkiston jamiyatidagi sinfiy farqlar, diniy xurofot, ayollar erkinligi, o'zbek ziyolilarining fojiali taqdiri chuqur aks etgan. Shu jihatdan u nafaqat jadid adabiyotining, balki umuman yangi o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri sifatida e'tirof etiladi [1. 5-b.].

Ulkan iste'dod egasi Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkentda bog'bon oilasida dunyoga kelgan. Bo'lajak adib hayot mohiyatini, turmushdagi tirikchilik tashvishlari-yu ziddiyatlarini juda erta anglagan. XX asr avvali ijtimoiy hayotidagi tang holatlar yosh Abdullaning bolaligi-ga ham soya tashlagan. U bolaligidanoq turmush tashvishlari ichiga sho'ng'igan. Shu ma'noda adib o'z tarjimaiy holiga Abdulla Qodiriyning bolaligi oid manbalarda o'sha zamonlarni xotirlab shunday yozadi: *"Men qaysi yilda va qaysi oyda tug'ilg'onimni bilmayman. Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechiruvchi bir oilada tug'ulib, yaqinlarimning so'zlariga qaraganda, mustabid Nikolay taxtga o'tirgan yilida tug'ulg'onman. Boshida boy oilada tug'uldimmi yoki kambag'al oiladami, albatta, bilmadim. Ammo yoshim 7-8 ga yetgach, qornim oshg'a to'ymag'onidan, ustum tuzukroq kiyim ko'rmaganidan aniq bildimki, besh jonning tomog'i faqat 80 yoshlik chol otamning mehnatidan. 1300 sarjin bog'ning yozda yetishtirib beradigan hosilidan kelar ekan. Agar bahor yomon kelib, bog' mevalari ofatga uchrab qolsa, biz ham ochliqqa duch kelib, qishi bilan jourashib chiqar ekanmiz"*. Abdulla Qodiriy bolaligida duradgorlikni o'rganadi; akasi bilan toqichilik



qildi. Shuningdek, u esini tanigan chog'idan boshlab, otasiga bog' ishlariga qarashadi. Bu yumush unga umr bo'yi hamroh bo'lgani ma'lum gap [2. 4-5 b.]. Yoshligidan ilmga qiziqqan, oilaviy qiyinchiliklarga qaramay eski maktab va madrasada tahsil olgan, rus-tuzem maktabida o'qigan. Jadidlar bilan muloqotda bo'lgan, ularning g'oyalari ta'sirida o'zining ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirgan.

Abdulla Qodiriy jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri sifatida matbuotda faol qatnashgan, "Mushtum", "Sadoi Turkiston", "Inqilob" kabi nashrlarda maqolalar yozgan. Adibning "Yangi masjid va maktab" sarlavhali asari matbuotda birinchi chiqishi edi. Shundan so'ng, "To'y", "Ahvolimiz", "Millatimga", "Fikr aylag'il" she'rlari nashrdan chiqadi. "Fikr aylag'il" she'rida oqil insonlarga murojaat qilib:

Oqilo, fikr aylagilki, na ishlayur ahli vatan,

Qaysi fosiq, qaysi johil, qaysisi bo'ldi chapana? –

deb kuyunadi [3. 44-b.]. Jadidchilik g'oyasi Qodiriy ijodida ma'rifat, milliy uyg'onish, mustamlakachilikka qarshi kurash, islohot va adolat kabi tushunchalar orqali namoyon. Adib o'zining "O'tgan kunlar" (1922) romani orqali nafaqat o'zbek adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdi, balki xalq hayotini badiiy obrazlar orqali tasvirlash, millatning o'tmishidan saboq chiqarish kabi dolzarb g'oyalarni ilgari surdi. Uning asarlari – butun Turkiston tarixining o'ziga xos badiiy hujjati, jadidlik ruhining so'zdagi ifodasi hisoblanadi.

Abdulla Qodiriyning eng mashhur va o'zbek adabiyotining ilk realistlik romanlaridan biri "O'tgan kunlar" asaridir. Ushbu roman 1922-yilda e'lon qilingan bo'lib, Turkistonning XIX asr oxirlaridagi ijtimoiy hayotini aks ettiradi [4. 23-b.]. Asarda Otabek va Kumush obrazlari orqali adib o'zbek jamiyatidagi ma'naviy inqiroz, urf-odatlar, adolatsizliklarni fosh qiladi. Otabek obrazi Qodiriyning o'zi e'tirof etganidek, yangi fikrli, jadidona qarashdagi, vatanparvar, adolatparast kishining timsolidir. Kumush esa o'sha davr ayolining g'amli, lekin e'tiqodli siymosidir [5. 18-b.]. Bu asarda jamiyatning turli qatlamlari, savdogarlar, dehqonlar, mansabdorlar, ulamolar aniq tasvirlangan. Roman tilining xalqonaligi, obrazlarning



jonliligi, syujetdagi dramatism uni o'zbek adabiyotining eng yuksak namunalaridan biriga aylantirdi [6. 79-b.].

Abdulla Qodiriyning ikkinchi romani – *“Mehrobdan chayon”* (1929)da – adib jamiyatdagi mansabparastlik, diniy riyo, johillik va erkni buzuvchi omillarni keskin tanqid qiladi. Romandagi Baxtiyorbek, Hamidxon kabi obrazlar orqali o'sha davrdagi amaldorlarning loqaydligi va zolimligini ochib beradi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy romandagi Xudoyorxon obrazidan olabo'ji yasashni emas, balki hukmdor inson siymosini, hayot ziddiyatlari ichra o'z holicha ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. E'tibor berilsa, Abdulla Qodiriy *“Mehrobdan chayon”*dagi Xudoyorxon obraziga aynan tilga e'tibor masalasida milliy tuyg'ularni singdiradi: *“Xudoyor muhr bosish asnosi yozilgan yorlig' va nomalarni o'qutib eshitar, munshilarning eshitilmagan arab va fors so'zlari orqaliq to'qug'an yarimturkiy jumllariga aksar vaqt tushunmas: "Enalaring arapqa tekkanma?" deb mirzo, muftilarni koyir edi. Ammo Anvarning yozg'an har bir jumlasini musiqiy kabi rohatlanib, tushunib tinglar va “shu bala barilaringdan ham o'qug'anraq chiqar!” deb, boshqa mirzolarning yuragiga o't yoqar edi”* – deb yozadi asarda [2. 87-88-b.]. Bu roman o'zbek adabiyotida siyosiy-ijtimoiy tanqidning yuksak namunasi hisoblanadi. Unda ilgari surilgan g'oyalar sho'ro hukumatining noroziligiga sabab bo'lib, Qodiriy keyinchalik tazyiqlarga uchradi [7. 32-b.].

Sho'ro hukumatining 1937-yilgi qatag'on siyosati Abdulla Qodiriy taqdiriga ham og'ir ta'sir ko'rsatdi. Shu yil 31-dekabr kuni Qodiriy *“xalq dushmani”* degan tuhmat bilan qamoqqa olinib, so'roqlardan so'ng otib tashlandi. Abdulla Qodiriyning nabirasi Sherkon Qodiriyning yozishicha, o'shanda tergov mahali ham adib: *“Menga qo'yilgan ayblarni boshdan-oyoq rad etaman. Haqiqat yo'lida har qanday, hech qanday jazodan, qiynoqdan qo'rqmayman. Agar otmoqchi bo'lsalaring ko'kragimni kerib turaman...”* deb mardona turadi. Uning asarlari uzoq yillar ta'qiqlanib, faqat 1956-yildan keyin oqlanib, qayta nashr etila boshlandi [8. 6 b.].

Abdulla Qodiriy oqlangandan keyin 1958-yildan boshlab, uning qutlug' nomi tiklanib, asarlari xalqqa qaytarila boshlandi. Adib va uning asarlari haqida



qator tadqiqotlar va risolalar maydonga keldi. 1991-yil O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilingandan so'nggina Abdulla Qodiriyga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatila boshlandi. Abdulla Qodiriy Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti va *“Mustaqillik”* ordeni bilan taqdirlandi. Abdulla Qodiriy haqida Xayriddin Sultonov *“Ra'no gulining suvi”*, *“Moziydan bir sahifa”*, Abdulhamid Ismoil *“Jinlar Abdulla Qodiriy bazmi yoxud katta o'yin”*, Xurshid Do'stmuhammad *“Yolg'iz”* kabi asarlar yozdi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga doir arxiv manbalarini o'rganish natijasida Nabijon Boqiyning *“Qatlnoma”* nomli hujjatli qissasi maydonga keldi. Adibning hayoti, ijodiga bag'ishlab hujjatli fil'm, asarlari asosida kinofil'm va pyesalar paydo bo'ldi. *“O'tkan kunlar”* va *“Mehrobdan chayon”* romanlari negizida badiiy fil'm, videofil'mlar ishlanib, sahnalarda namoyish etildi. O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzo tomonidan Abdulla Qodiriy asarlariga qator rasmlar ishlandi. 2019-yil dekabrda Toshkentda Abdulla Qodiriy yashagan uyda, shuningdek, poytaxtning Abdulla Qodiriy bog'ida muzeylar tashkil etildi. Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi ishlab turibdi [2. 15-16-b.].

Xulosa o'rnida aytganda, Abdulla Qodiriy o'zining hayoti, qarashlari va asarlari bilan o'zbek milliy uyg'onishining ramziga aylangan. Uning romanlari o'zbek adabiyotida realizm, tarixiylik, tanqidiy tafakkur kabi yondashuvlarni rivojlantirdi. Jadidchilik ruhidagi bu asarlar bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ularning yosh avlodni tarbiyalashda, tarixni anglashda, ma'naviyatni shakllantirishda tutgan o'rni beqiyosdir. Bugun Abdulla Qodiriy nafaqat adabiyotshunoslikda, balki umumxalq xotirasida millat fidoyisi, so'z san'atini yuksak cho'qqilarga olib chiqqan ijodkor sifatida yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy. *O'tgan kunlar*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2014.
2. Karimov B. *Jadidlar Abdulla Qodiriy*. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
3. Karimov B. *O'tgan kunlar ibрати*. – Toshkent: Yozuvchi, 2019.
4. Normatov U. *Abdulla Qodiriy va uning adabiy merosi*. – Toshkent: Fan, 1994.



5. Madrahimov S. XX asr o'zbek adabiyoti. – Samarqand: Navoiy nomidagi universitet nashriyoti, 2015.
6. Zunnunov A. O'zbek romanchiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 1982.
7. Qayumov A. Ma'naviyat, ma'rifat va qatag'on. – Toshkent: Akademnashr, 2008.
8. Qodiriyni qo'msab. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994.